

QUYI SINFLARDA ONA TILIGA E'TIBOR

¹K.A.Nuroliyeva,

²M.B.Aliqulova,

³G.N.Safarova

Guliston shahar 2-maktab onatili va adabiyot fani o'qituvchilari,
maktab2*@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7524281>

Annotatsiya: Pedagog sifatida, amaliyot jarayonida quyi sinflarda shu jarayonni kuzatish imkoniyati tug'ildiki, bu bizda yangi fikr hamda metod tug'ilishiga sababchi bo'ldi.

Kalit so'zlar: tarbiya, erkin, ijodkor, mustaqil fikr, ta'lim, axloq.

Hozirgi vaqtda dunyoda 6000 ga yaqin til mavjud bo'lsada, ularning atiga 0.6-0.7 foizigina davlat tili maqomiga erishgan tillar hisoblanadi. Ular ichidan 40 taga yaqin tillar o'zaro og'zaki va yozma jihatdan mukammal shakllangandir. Quvonarlisi shundaki, mazkur 40 til ichida o'zbek tili ham bordir. Dunyodagi qadimiy, boy, tarix silsilalaridan xuddi xalqimiz kabi bardosh bilan o'tib kelayotgan o'zligimiz, g'ururimiz timsoli bo'lgan o'zbek tili xalqaro va davlat miqyosidagi til hisoblanadi. Bunga tamal toshi 1989-yil 21-oktabrda qo'yilgan, unda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan birgalikda, mamlakatimiz bo'ylab yuritiladigan barcha davlat hujjatlari, qaror va farmoyishlar, o'quv adabiyotlari, xullas, jamiyat tili, turmushi barchasida o'zligimiz aks eta boshlagandi.

Ruhsiz tanada jon bo'lishining foydasi bo'lmaganidek, millat bo'la turib uning milliy tili bo'lmasa, xuddi quldek tobe bo'ladi. O'zbek tilining keng tarqalishi va ravnaqi uchun, albatta, ko'p sonli aholi zarur. Til jamiyatda o'zaro aloqa almashinuv quroli, ilm olishda asosiy vositadir. Insonni til o'rganmaslikka majbur qilish oxiri uning jamiyatdan uzilib, individ shaklida qolib ketishi bilan yakunlanadi. Biz esa oldimizga mustaqil fikrga ega bo'lgan, jahonda o'z so'zini baralla ayta oladigan, ham ruhan, ham jismonan sog'lom kelajak yaratish yo'liga tushib olganmiz. Allani uyda onalarimiz, momolarimiz aytib o'tiraversinlar, jamiyatdagi "allani" esa yosh avlodga aytish millatning taqdirini hal qiluvchi pedogoglar zimmasidadir. Ular bolani uxlatish uchun emas, balkim, ongini dunyo bilan tanishtirish, mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lishi uchun, olamni anglashi uchun uyqudagi aql-tafakkurni g'aflatdan halos qilish uchun aytishlari shart!

Ya'niki, amaliyot jarayonida shu narsa e'tiborimni tortdiki, aksariyat maktablarda 1-sinfga qabul qilinadigan o'quvchilar sonining ko'pligi bo'ldi. Dars jarayonida o'qituvchi diqqat beqarorligiga ega bo'lgan o'quvchini

shuncha tengdoshlari orasidan ilg'ashi qiyin, bu esa ko'proq barcha o'quvchilar bilan birgalikda shug'ullanishiga sabab bo'ladi. Uyg'a vazifalarni tekshirishda mashqlar javobi og'zaki o'qib qo'yiladi.

O'zlashtirishi va diqqati sust bo'lgan o'quvchilarga esa vaqt yetishmovchiligi to'siq bo'ladi. Mashhur chex pedagogi Yan Komenskiy sinfda o'quvchilar soni 20-22 tadan oshmasligini ta'kidlaydi. Bu sonlardan oshib ketdimi ta'lim sifatiga va bola bilimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida to'xtalib o'tadi. Bu fikrlar barcha fanlar uchun o'rinli emasdir, lekin ona tili darslari uchun muhimdir. Aksariyat davlatlarda boshlang'ich ta'lim tizimida kichik guruhlar asosida bo'lib o'qitishga o'tilgan. Buni men barcha o'zlashtirilishi kerak bo'lgan fanlar uchun o'rinli deyolmayman. Ammo boshlang'ich sinflarda ona tili o'rgatish darslari uchun bu usul juda ham kerakdir. Kuzatishlarim davomida, savod o'rgatish jarayonida umumiy jamoa bo'lib, butun bir sinf shaklida darslarni tashkil etish yaxshi, lekin 1- sinfnings 2-yarmidan ona tili darslari boshlanishini inobatga olsak, sinf ichida sinf tashkil etish juda yaxshi hisoblanadi. Buning uchun o'quvchilarning o'zlashtirish darajalaridan xabardor bo'lgan holda, aralash tarzda ikkiga yoki uchga bo'lish kerak. Shunda o'zimda va boshqalarda quyidagi savollar tug'ilishi tabiiy: Xo'sh, bu sinflarda o'qitish qanday tashkillashtiriladi? Dars shakli qanday bo'ladi? Ta'lim beruvchi o'qituvchi ikkala sinfga ham o'zi dars beradimi? Ikki o'qituvchi o'qitishida farqlar kuzatilsa nima bo'ladi? Bu boshqa fanlarga ta'sirini o'tkazmaydimi? Ta'limning bu shakliga bag'ishlangan alohida metod va usullar bormi?

Bunda ona tili darslari ikkala guruhga ham bir vaqtning o'zida tashkil etiladi. Dars shakli o'quvchilar uchun tanish bo'lgan hamda o'qituvchi olib boradigan shakllarda bo'lgani ma'qul (boshida, albatta). Endi ta'lim beruvchilarga to'xtalsak, bunda assistent o'qituvchining bo'lishi juda ahamiyatlidir. Bo'lmagan taqdirda boshqa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu boshqa fanlar o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir bermasligi kerak, chunki bola notanish bo'lgan jarayon va narsalarga doimiy qiziqish bilan qaraydi. Darslardagi bu kabi rang-barangliklar ularning qiziqishlarini yanada oshishiga sabab bo'ladi. Masalan, sinfda o'quvchi soni 32 ta bo'lsa, ularni asosan shu paytgacha shakllangan sinf ro'yxati asosida taqsimlagan ma'qul. 16 tadan o'quvchi

shaklidagi sinf o'qituvchi uchun biroz yengillik beradi. Ular bilan shug'ullanishi uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. E'tibor ortganidan xursand bo'lgan o'quvchilar o'zlashtirishi esa sezilarli darajada ortishi tabiiy. Chunki ularning uyg'a vazifa va topshiriqlarni bajarishlari muntazam nazorat ostida bo'ladi. Har bir bo'lim yuzasidan takrorlash va

mustahkamlash darslarida esa sinfni yana birlashtirgan ma`qul, chunki bunda kamchiliklar, tuzatilishi kerak bo'lgan xatolar yaqqol ko'zga tashlanadi.

So'zlarni o'qing. Qaysi tovush so'z ma`nosini o'zgartiryapti?

Aka – uka,ota – ona – opa, bola – xola, buva – buvi

Bunda tarqatma materiallardan foydalanish kerak. O'qituvchi mashq ichidagi so'zlarni eshittirgandan so'ng, ularning yozma shakllari yozilgan qog'ozlarni 16ta (sinfidagi o'quvchilar soniga qarab) o'quvchiga tarqatib beradi:

O'quvchilar yuqoridagi tarqatma materiallar ichidan o'zaro o'xshash so'zlarni

topib, ularni tahlil qilishlari kerak(kamsonli o'quvchidan tashkil topgan guruhlarda qo'shimcha ravishda quyidagi savollarga ham o'quvchilar tomonidan javob beriladi).

- So'z nechta harf yoki tovushdan iborat?
- So'z ma`nosini o'zgartirayotgan tovush qaysi tovush?
- Harflar nega ikki xil rangda?
- So'zlar nechta bo'g'indan iborat?

Dam olish daqiqasiga esa quyidagi o'yin yaxshi samara berib,o'quvchini diqqatini jamlaydi: O'qituvchi sekin borib biron o'quvchiga kam bo'g'inli so'z(echki,ikki,ukki kabilar)ni pichirlab qulog'iga aytadi. O'quvchi esa eshitgan so'zini yonidagi o'quvchiga sekin aytadi. U esa boshqasiga. Shunday qilib o'quvchilar tilida aylangan bu so'z o'qituvchining o'ziga qaytib keladi,u esa bu so'zning o'zi aytgan so'z bilan to'g'ri kelish – kelmasligini aytadi. So'z o'zgargan bo'lsa, to'g'irlanadi,aksincha bo'lsa o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bundan tarbiya quroli sifatida ham foydalansa bo'ladi. Masalan, “O'quvchilar, ko'rdingizmi? Sinfdoshingizning arzimasi xatosini deb to'g'ri so'z boshqa so'zga aylanib ketdi. Ma`nosi va shakli ham o'zgardi. Quloqdan quloqqa, og'izdan og'izga o'tuvchi so'zlar ham shunday o'zgarishga uchraydi.

Shuning uchun, bolajonlar, har bir so'z,voqeani o'zimiz ko'zimiz, qulog'imiz bilan eshitganimiz afzal” kabi. Yuqoridagi metodlar o'quvchi eshitish qobiliyatini, shuningdek, zehnini ham o'tkir qiladi. Eshitilishi bilan yozilishidagi farqli so'zlar haqida ham tasavvurga ega bo'lishadi. Bu esa bolalarda to'g'ri tasavvurni shakllantiadi. Ular keyinchalik har bir so'z ma`lum bir tovushlardan iborat ekanliklarini fahmlay boshlaydilar.

Xullas, kamsonli kichik guruhlarga bo'lingan si nflarda bu kabi metodlarni qo'llash juda yaxshi foyda beradi. Sifatli va puxta o'ylangan ta`lim esa iste`dodli

o'quvchilarni yuzaga chiqarib beradi. Mahoratli pedagog butun bir millat taqdiri qo'lida turganligini his qilib, o'z vazifasiga ma'suliyat bilan yondashishi shart. Zero, boshlang'ich ta'limsiz ta'limning keyingi bosqichlariga o'tib bo'lmaydi. Asos qancha mustahkam va puxta o'ylanib yaratilsa, ishonch hamda umid shuncha yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar. "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent – 2009.
2. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. "1-sinf o'quvchilari uchun ona tili darsligi". Toshkent – 2019 "Sharq" nashriyoti.